

"Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holatini baholash mezonlari"
(7-indikator)

	Baholash mezonlari	Ballar	Mas’ul bo‘linmalar
Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga doir ichki idoraviy hujjatlarning ochiq e’lon qilinishi			
1.	korruptsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularningoldini olishga doir idoraviy hujjatlar (korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish haqida nizom, odob-axloq qoidalari, korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati, kontragentlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma, davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va baholash uslubiyati, korruptsiyaviy harakatlar to‘g‘risida ma’lumot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish va qayta ishlash reglamenti, sohadagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti) e’lon qilinsa	2	Komplayens-nazorat departamenti
	hujjatlar to‘liq bo‘lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e’lon qilinsa	1	
	hujjatlar e’lon qilinmasa	0	
Korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan alohida aloqa kanallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning e’lon qilinishi			
2.	korruptsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan alohida aloqa kanallari (qisqa raqamli «ishonch telefoni», elektron pochta va boshqa elektron manzillar, telegram bot, platforma yoki boshqa maxsus dasturiy ta’minot) haqidagi ma’lumotlar e’lon qilinsa	2	Komplayens-nazorat departamenti
	aloqa kanallari qisman tashkil etilsa yoki to‘liq e’lon qilinmasa	1	
	aloqa kanallari tashkil etilmasa va e’lon qilinmasa	0	
Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda korruptsiyaviy holatlarning oldini olish tizimi joriy etilganligi			
3.	rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish va rotatsiya to‘g‘risidagi ma’lumotlar (axborot) e’lon qilinib, bo‘sh ish o‘rinlari uchun nomzodlarni tanlash jarayonlari jonli (onlayn) translyatsiya qilib borilsa	2	Xodimlar ba tashkiliy rivojlantirish departamenti
	ma’lumotlarni e’lon qilish, yangilab borish va jonli translyatsiya qilish to‘liq amalga oshirilmasa	1	
	ma’lumotlar e’lon qilinmasa va nomzodlarni tanlash jarayonlari jonli translyatsiya qilinmasa	0	
Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini belgilovchi hujjatlarni e’lon qilish darajasi			

4.	mehnat munosabatlariga oid hujjatlarda (mehnat yoki jamoat shartnomasi) korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish, korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlarni ragʻbatlantirish va ularni taʼqibga olmaslik kafolatini belgilovchi ichki idoraviy hujjatlar eʼlon qilinsa	2	Xodimlar ba tashkiliy rivojlantirish departamenti
	hujjatlar toʻliq eʼlon qilinmasa	1	
		hujjatlar eʼlon qilinmasa	0
Manfaatlar toʻqnashuvi holatlari haqida jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining joriy etilganligi			
5.	aniqlangan har bir manfaatlar toʻqnashuvi holatlariga nisbatan ichki idoraviy tekshiruv natijalari, qabul qilingan qaror va ularningoldini olish boʻyicha koʻrilgan chora-tadbirlar haqidagi maʼlumot (hisobot, axborot va boshqa) eʼlon qilinsa	2	Xodimlar ba tashkiliy rivojlantirish departamenti
	eʼlon qilinishi lozim boʻlgan maʼlumotlarga qoʻyilgan talablar qisman bajarilsa	1	
	maʼlumot eʼlon qilinmasa	0	
Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini koʻrish va natijalari haqida hisobdorlik tizimi yoʻlga qoʻyilganligi			
6.	korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar (tahlillar va jamoatchilik soʻrovlari, shu jumladan onlayn soʻrovnoma va uning natijalari, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish boʻyicha koʻrilgan choralari haqidagi hisobotlar (axborot), ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalari) eʼlon qilinsa	2	Komplayens-nazorat departamenti
	eʼlon qilinishi lozim boʻlgan maʼlumotlarga qoʻyilgan talablar qisman bajarilsa	1	Yuridik departament
	maʼlumot eʼlon qilinmasa	0	
Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha ichki tartib-taomillaridan xabardorligi hamda sohadagi bilim va koʻnikmalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning eʼlon qilinishi			
7.	xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha tayyorlash va qayta tayyorlash, shu jumladan yangi ishga qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha bilim va koʻnikmalarini oshirish boʻyicha joriy etilgan tizim, ishlab chiqilgan maxsus oʻquv dasturlar, qoʻllanma va boshqa hujjatlar eʼlon qilinsa	2	Xodimlar ba tashkiliy rivojlantirish departamenti
	eʼlon qilinishi lozim boʻlgan maʼlumotlarga qoʻyilgan talablar qisman bajarilsa	1	
	maʼlumot eʼlon qilinmasa	0	
Keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida oʻtkazilgan press-tadbirlarni (matbuot anjumanlari, brifing, seminar, trening, davra suhbat, taqdimot, muhokama va boshqa tadbirlar) eʼlon qilish darajasi			
8.	infografika va video formatda eʼlon qilinsa	1	Axborot xizmati
	foto va matn shaklida eʼlon qilinsa	0,5	
	axborot eʼlon qilinmasa	0	

Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ‘ibot materiallarini (slayd, rolik, ma’ruza matnlari, maqola, buklet, risola va boshqalar) e’lon qilish darajasi			
9.	slayd, rolik, buklet va risola shaklida e’lon qilinsa	1	Axborot xizmati
	ma’ruza matnlari va maqola shaklida e’lon qilinsa	0,5	
	axborot e’lon qilinmasa	0	
	Mezonlar soni	9	
	Umumiy ball	16	